




1.5. LABORATORIYA JIHOZLARI

Laboratoriyada turli jihozlardan foydalaniladi. Ular tajriba, o'lchov va kuzatishlar o'tkazish uchun zarur. Jihozlar turli maqsadlarda ishlatiladi. Biz xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ulardan to'g'ri foydalanishni, shuningdek, kuzatish va o'lchash ishlarini to'g'ri, aniq bajarishni o'rganishimiz zarur.


1.3-jadvalda ayrim laboratoriya jihozlari va ularning qo'llanilishi keltirilgan.

1.3-jadval. Laboratoriya jihozlari va ularning qo'llanilishi.

Jihoz	Qo'llanilishi	Jihoz	Qo'llanilishi
 probirka	Kichik miqdordagi moddalarni saqlash va qizdirish uchun mo'ljallangan	 konussimon kolba	Kimyoviy moddalarni saqlash yoki suyuqliklarni yig'ish uchun mo'ljallangan
 stakan	Eritmalar tayyorlash, suyuqliklarni aralashtirish va qizdirish uchun mo'ljallangan	 menzurka	Suyuqliklar hajmini o'lchash uchun mo'ljallangan
 filtrli voronka	Suyuqlikda erimaydigan qattiq moddani filtr yordamida ajratish uchun mo'ljallangan	 shisha qalpoq	Tajriba obyektni tashqi muhitdan alohidalash uchun mo'ljallangan
 tomizg'ich (pipetka)	Muayyan miqdordagi suyuqlikni olish uchun mo'ljallangan	 Petri idishi	Biologik namunani oziq muhitida o'stirish uchun mo'ljallangan

Jihoz	Qo'llanilishi	Jihoz	Qo'llanilishi
 yassi uchli pinset	Buyum oynasi, qoplagich oyna kabi jihozlarni ushlash uchun mo'ljallangan	 o'tkir uchli pinset	Kichik o'lchamli buyumlarni ushlash, biologik namunalarni buyum oynasiga joylashtirish uchun mo'ljallangan
 skalpel	Biologik to'qimalarni kesish uchun mo'ljallangan	 preparatsiya ignasi	Buyum oynasiga joylashtirilgan biologik namunaning yupqa kesmalarini tekis joylashtirish uchun mo'ljallangan
 buyum oynasi	Mikroskopda ko'riladigan namunani joylashtirish uchun mo'ljallangan	 qoplagich oyna	Buyum oynasiga joylashtirilgan biologik namuna ustini yopish uchun mo'ljallangan
 laboratoriya shtativi	Tajriba jarayonida jihozlarni mustahkam tutib turish uchun mo'ljallangan	 keramik taglik	Yuqori haroratgacha qizdirilgan jihozlarni qo'yish uchun mo'ljallangan
 uchoyoq	Qizdirish jarayonida jihozlarni tutib turish uchun mo'ljallangan	 simto'r	Moddani qizdirishda laboratoriya idishlari va kolbalarga berilayotgan issiqlikni bir tekis taqsimlash uchun mo'ljallangan

Bunzen gorelkasi (1.18-rasm) keng qo'llaniladigan laboratoriya jihozi bo'lib, qizdirish maqsadida foydalaniladi.



1.18-rasm. Bunzen gorelkasi va uning sxemasi.



Asosiy jihatlar

- Laboratoriya jihozlari turli maqsadlarda ishlatiladi. Ushbu jihozlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish xavfsizlik nuqtayi nazaridan, shuningdek, aniq va ishonchli o'lchov hamda kuzatishlar o'tkazish uchun muhimdir.